



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI


(dastlabki ma'lumotlar)

2020- yil yanvar-iyul oyida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yil yanvar-iyul oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4 615,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,2 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida savdo xizmatlari (32,7 %), transport xizmatlari (18,1 %), moliyaviy xizmatlar (17,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining ulushi (6,1 %) ustunlikka ega.

2020- yil yanvar-iyul oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



2020- yil yanvar-iyul

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

2020- yil yanvar-iyul oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajm, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar – jami	4 615,7	100,2
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	282,5	111,7
Moliyaviy xizmatlar	817,2	130,1
Transport xizmatlari	836,2	95,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari		
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	87,1	80,8
Savdo xizmatlari	1 510,5	96,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	118,5	89,4
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	210,2	116,1
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	84,1	79,4
Ijara xizmatlari	100,9	105,6
Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	113,3	91,1
Shaxsiy xizmatlar	269,7	87,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	70,2	61,0
Boshqa xizmatlar	115,3	92,7

2020- yil
yanvar-iyul

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi




NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

Xizmatlar sohasida eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (130,1 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (116,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (111,7 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.

2020- yil yanvar-iyul oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 482,0 mlrd. so'mga oshdi.

2020- yil yanvar-iyul oyida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



2020- yil
yanvar-iyul

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

2020- yil yanvar-iyul oyida o'tgan yilga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga moliyaviy xizmatlar (231,4 mlrd. so'mga), savdo xizmatlari (122,1 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (49,3 mlrd. so'mga) hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ma'lumot uchun: 2019- yilning yanvar-iyul oyida moliyaviy xizmatlari 258,3 mlrd. so'm, savdo xizmatlari 199,8 mlrd. so'm, transport xizmatlar 95,7 mlrd. so'mga oshgan.



2020- yil
yanvar-iyul


Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

2020- yil yanvar-iyul oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (61,0 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (79,4 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (80,8 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining deyarli uchdan bir qismi savdo xizmatlari tashkil etdi. 2020- yil yanvar-iyul oyida uning ulushi 32,7 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari (18,1 %), moliyaviy xizmatlar (17,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,1 %) egallaydi.

2020- yil
yanvar-iyul

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

2020- yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi

Eng kam ulush

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar
1,5 %

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar
1,8 %

Yashash va ovqatlanish xizmatlari
1,9 %

Ijara xizmatlari
2,2 %

Kompyuterlar va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash
2,5 %

Boshqa xizmatlar
2,5 %

Eng katta ulush

Savdo xizmatlari
32,7 %

Transport xizmatlari
18,1 %

Moliyaviy xizmatlar
17,7 %

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari
6,1 %

Shaxsiy xizmatlar
5,8 %

Ta'lim sohasidagi xizmatlar
4,6 %

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar
2,6 %

2020- yil
yanvar-iyul

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)


Bugungi kunda xizmatlar sohasining tez rivojlanayotgan turlariga AKT va moliya-kredit muassasalarining xizmatlari taalluqlidir. Yangi texnologiyalar va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayangan holda, ushbu faoliyat turlari so'nggi vaqtlarda rivojlanishning yangi bosqichiga chiqdi va hozir kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashuvida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

2020- yil yanvar-iyul oyida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, %

Transport xizmatlari tarkibida yetakchi o'rinni avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar (92,6 %) egallaydi.

Yordamchi transport faoliyati transport xizmatlari umumiy hajmining 7,1% ni tashkil qiladi.

Pochta va kuryerlik faoliyati bo'yicha transport xizmatlarining 0,3 % ni tashkil etadi.






NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega. 2020- yil yanvar-iyul oyida uning ulushi 77,1 % ni tashkil etadi.

2020- yil yanvar-iyul oyida savdo xizmatlari tarkibi, %



Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) ulushi 17,3 % ga yetdi.

Avtomobillar va motosikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va motosikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 5,6 % ni egallaydi.

2020- yil
yanvar-iyul

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

2020- yil yanvar-iyul oyida aloqa va axborotlashtirish turlari bo'yicha aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi, %

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibida yetakchi o'rinni telekommunikasiya xizmati (97,4 %) egallaydi.


Nashriyotchilik xizmati umumiy hajmining 1,9 % ni tashkil qiladi.

Axborot sohasidagi xizmatlar umumiy aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,3 % ni tashkil etadi.

Kompyuter programmalarini ishlab chiqarish xizmati aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,3 % ni tashkil etadi.

Kino, videofilm va televideniya dasturlari ishlab chiqarish xizmati umumiy aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,1 % ni tashkil etadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi 2020-yil yanvar-iyul oyi, %



Telekommunikasiya xizmati

Axborot sohasidagi xizmatlar

Nashriyotchilik xizmati

Kompyuter programmalarini ishlab chiqarish xizmati

Kino, videofilm va televideniya dasturlari ishlab chiqarish xizmati

2020- yil
yanvar-iyul

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi




NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga investitsiyalarni ko'paytirish butun dunyoda raqamli o'zgarishni boshqaradi va ko'plab odamlar AKT xizmatlari, xususan, mobil aloqa va internet tarmog'idan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

2020- yil yanvar-iyul oyida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



2020- yil yanvar-iyul oyida moliyaviy xizmatlar hajmi 817,2 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 130,1 % ni tashkil etdi.

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning asosiy qismini pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari (91,0 %) tashkil etadi.

2020- yil
yanvar-iyul

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi




NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

2020- yilning yanvar-iyul oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 87,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2019- yil yanvar-iyul oyiga nisbatan o'sish sur'atlari 80,8 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 1,9 % ga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibining taqqoslanishi, %

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 100 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 84,3 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 15,7 % ga to'g'ri keladi.

2020- yil yanvar-iyul

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi




NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

2020- yil yanvar-iyul oyida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi, ming so'm

2020- yil yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1 635,2 ming. so'mga teng bo'ldi. 2019- yil yanvar-iyul oyiga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 140,0 ming so'mga oshdi.



Namangan viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar soxasi statistikasi bo'limi

(69) 227-85-28

2020- yil
yanvar-iyul

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi